

TADBIRKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Marg'ilon shahar 1-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchisi
Aminova Azizaxon Anvarovna

Annotatsiya: *Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, kichik biznes, yalpi ichki mahsulot, byudjet, kichik va o'rta tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, kredit, subsidiya, ko'chmas mulk, resurus, kompaniya, tijorat bank, aksiyalar, raqamli texnologiya.*

“Inson qadrini ulug‘lash, aholimiz manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qildi bu bejizga emas.

Yangi yilda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish yanada kuchaytiriladi. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor va imkoniyatlar yaratiladi.

Raqamli texnologiyalari davrida faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash shart-sharoitlari, imkoniyatlari kun sayin ortib bormoqda. "Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumadan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish hamda joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart"- deb ta’kidlaganlar prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Tadbirkorlik faoliyatini rnuvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri - bu tadbirkorlik subyekti (korxonalar, tashkilot, firma) ichki rejalarining mukammalligi, sifat darajasi hisoblanadi. U o‘z ichiga istiqboldagi maqsadlarni aniqlash va ularga erishish yo‘llari hamda resurs ta’minotini oladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati bu yakka ish yuritish va tavakkalchilikka asoslangan, mulkdan foydalanish, foyda olish omilidir.

Tadbirkorlik - bu amaldagi qonunlar doirasida kishilarning foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan xo‘jalik faoliyatini yuritishiga asoslangan sohibkorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsion yangiliklar yaratish hamda ularni amaliyotda qo‘llanishi juda muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribalardan ham ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko‘p jihatdan innovatsion faoliyatga bog‘liq. Amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashning bir qancha sabablari mavjud bo‘lib, bunda sohaning ichki bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirishdagi ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarini qonuniy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga belgilangan soliqlarning stavkalarini pasaytirilishi natijasida ushbu tarmoq bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi, ularning mamlakat yalpi milliy mahsuloti tarkibidagi ulushi tobora o'sib bormoqda

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilmoqda

Unga budjetdan 1,2 trln so'm ajratilib, xalqaro tashkilotlardan \$100 mln miqdorida mablag'lar jalb etiladi. Shavkat Mirziyoyev 10-noyabr kuni "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Unda o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan resurslarning yetishmasligi qayd etilgan. Hujjat bilan, muqobil moliyaviy vositalarni, xususan, tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etish chora-tadbirlari belgilandi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" sifatida qayta tashkil etiladi. Uning ta'sischisi, avvalgidek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'ladi.

Kompaniya faoliyati kichik va o'rta tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi turdagi mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish kabilarga yo'naltiriladi.

Shuningdek, o'z o'zini band qiluvchilarga moliyaviy ko'maklashilib, xizmatlar ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish hamda yetishtirish sohalarida "yashil" va energiya tejoychi texnologiyalarni, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish qo'llab-quvvatlanadi.

2023–2024 yillarda kompaniya ustav kapitali 300 mlrd so'm miqdorida shakllantiriladi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlaridan \$100 mln miqdorida mablag'lar jalb qilinadi.

O'zini o'zi band qiladigan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati kengaytirildi. Unga 19 ta band qo'shildi:

- qayta ishlangan jundan kiyimlar va boshqa buyumlar to'qish
- uy sharoitida loydan tandir tayyorlash
- atlas va adras to'qish
- mayda munchoq (biser) tikish
- do'ppido'zlik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash
- temirchilik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash
- asalarichilik, shuningdek, asalari uyasi va ramkalarini yasash
- quroqchilik usulida ko'ylak, ko'rpa va yopinchiqlar tikish
- qo'ziqorinlarni terish, uy sharoitlarida yetishtirish va sotish
- pichoq tayyorlash, charxlash va sotish
- qog'ozdan qutilar, banderollar tayyorlash
- uy sharoitida issiqxona mahsulotlarini yetishtirish
- tayyor mahsulotga etiketka biriktirish
- uy sharoitida bolalar o'yinchog'i ishlab chiqarish
- uy sharoitida supurgi yetishtirish va tayyorlash

- yassi oyoqli bolalar oyoq kiyimlarini tayyorlash
- milliy taqinchoqlar yasash
- kandakorlik, miskarlik buyumlarini uy sharoitida tayyorlash
- dag'al jundan gilam, ko'rpa va yostiq tayyorlash.

Endi ro'yxatga o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun 101 ta faoliyat turi kiradi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining ishonchli resurs bazasini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yagona mexanizmini yaratish maqsadida qarorda Toshkent shahridagi Kichik sanoat zonalarini kafolat jamg'armasi va Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasini tugatish, ularga tegishli bo'lgan 50 million AQSh dollari va 100 milliard so'm miqdoridagi mablag'larini yangidan tuzilayotgan jamg'arma hisobiga o'tkazish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, qarorda davlat byudjetining ushbu maqsadlar uchun har yili tasdiqlanadigan ajratmalar doirasidagi mablag'lari (2017-yilda – 100 milliard so'm), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik sof daromadining Davlat byudjetiga yo'naltiriladigan qismi, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donorlarning Jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun jalb etiladigan kreditlari (qarzlari) va grantlari hamda Jamg'armaning depozitlarni joylashtirish, kafolatlar berishdan tushadigan daromadlari, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar Jamg'arma resurslarining qo'shimcha manbalari sifatida belgilandi.

Qabul qilingan ushbu qaror Respublika bank-moliya tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy himoya qilish va kafolatlarini ta'minlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, biznes subyektlarining kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi hayot darajasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.S.Salayev, M. Gulmanov, D.Saidov, J.Atayev, B.Tadjiyev. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari. «Tafakkur Bo'stoni» TOSHKENT - 2014 2. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. T: 2017. (Annual Statistical Bulletin of the Republic of Uzbekistan. T: 2017)

3. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti-www.stat.uz. ma'lumotlari.

4. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

5. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

6. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). SHAXSIY KOMPYUTER BILAN O 'ZARO ALOQADA BO 'LGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING ISH JOYI VA O'RNI. *Scientific Impulse*, 1(11), 394-398.
7. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA CHATGPT VA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. *Scientific Impulse*, 2(16), 320-325.
8. Hamidullo o'g'li, T. H., & Kamolovich, B. E. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI. *Scientific Impulse*, 1(7), 648-653.
9. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. *Scientific Impulse*, 1(2), 535-537.
10. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 15(3), 49-57.
11. Xolboboyevich, X. J. (2023). TYPES AND PROPERTIES OF WOOD USED IN CARPENTRY. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
12. Xolboboyevich, X. J. (2023). "TEXNOLOGIK TA'LIM PRAKTIKUMI" DARSLARIDA TALABALARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. *Наука и технологии*, 1(2).
13. Xolboboyevich, X. J. (2023). O 'QUVCHILARNI DARSDAN TASHQARI VAQTLARIDA KASB HUNARGA YO 'NALTIRISH. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1019-1025.
14. Xayitov, J. (2023). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI TASHXISLOVCHI METODLAR. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(1 Part 2), 147-153.
15. Xayitov, J. (2022). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJ TAJRIBASI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 1463-1470.
16. Xolboboyevich, X. J. (2022). Using Innovation and Technology to Accelerate Progress in Education. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 113-116.
17. Hayitov, J. (2022). TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI. *Физико-технологического образование*, (3).
18. Hayitov, J. (2022). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNALOGIYASI. *Физико-технологического образование*, (3).
19. Xolboboyevich, H. J. (2022). Future Technology Creativity of Teachers Some Aspects of Development. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, 4, 55-58.
20. KHOLBOBOYEVICH, H. J. (2022, February). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGY. In *Next Scientists Conferences* (pp. 71-75).

21. Хайитов, Ж. Х. (2021). MUTAXASSISLIK FANLARINI O 'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISH. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 308-311.

22. Хайитов, Ж. Х. (2021). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JHATLARI. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 304-307.

23. Choriyev, N. N. (2022). The importance of learning carpet making in folk crafts. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 13, 25-28.

24. БАБАДЖАНОВ, С. Х., & ЧОРИЕВ, Н. Н. (2022). СОПРОТИВЛЕНИЕ КАЧЕНИЮ НАЖИМНОГО ВАЛИКА С РЕЗИНОВЫМ ПОКРЫТИЕМ ПРИ КАЧЕНИИ ПО ПОВЕРХНОСТИ РИФ ЦИЛИНДРА. In Молодежь и XXI век-2022 (pp. 344-347).

25. Nuritdinovich, C. N. (2023). AVTOMATLASHTIRILGAN ZAMONAVIY TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TALABALARNING AMALIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Научный Фокус, 1(2), 341-345.

26. Nuritdinovich, C. N. (2023). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA MUHANDISLIK KASBIGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(20), 356-360..

27. Nuritdinovich, C. N. (2023). To Develop the Creative Abilities of Future Engineers in Textiles. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 32-37.

28. Choriyev, N. (2022). STUDENTS IN THE ART OF EMBROIDERY IN UZBEKISTAN INTRODUCTION TO SCHOOLS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 2(12), 29-33.

29. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). TA'LIM TIZIMIGA MICROSOFT OFFICE 2003 VA 2020 DASTURLARINI QO 'LLANILISHI VA IMKONIYATLARI. Scientific Impulse, 2(13), 353-357.

30. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). SOHADA MICROSOFT OFFICE WORD 2003 VA 2021 DASTURLARI QO'LLANILISHI VA AFZALLIKLARI. Scientific Impulse, 1(11), 376-382.